

O‘ZBEKISTON BILAN TURKIYA O‘RTASIDAGI STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARI YANADA KENGAYTIRILADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi vitse-prezidenti Javdat Yilmaz boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Uchrashuv avvalida yuksak martabali mehmon davlatimiz rahbariga Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘anning salomi va samimiy tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston bilan Turkiya o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini, eng avvalo, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sohalarida yanada kengaytirish va mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqildi.

Turli darajalarda faol muloqot va almashinuvlar davom etayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘zaro savdo va investitsiyalar hajmi, qo‘shma korxonalar soni, aviaqatnovlar ko‘paymoqda.

Toshkent shahrida o‘tgan Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig‘ilishi, biznes muloqoti va ko‘rgazmaning samarali natijalari yuksak baholandi.

Tovar ayirboshlashni, shu jumladan, Imtiyozli savdo to‘g‘risidagi bitim doirasida tovarlar nomenklaturasini kengaytirish orqali yanada ko‘paytirish bo‘yicha o‘zaro muvofiqlashgan choralar ko‘rish muhim ekani ta’kidlandi.

YANGI O‘ZBEKISTONNI BARPO ETISH YO‘LIDA BILIMLI VA VATANPARVAR YOSHLARNI TARBİYALASH UCHUN BARCHA SHAROITLAR YARATILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 15-may kuni maktab ta’limi tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

— Dunyoda isbot talab qilmaydigan bir haqiqat bor: har qanday mamlakat taraqqiyoti sog‘lom va bilimli avlodga bog‘liq, — dedi Prezident so‘zining boshida. — Shu bois, Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida sog‘lom, bilimli, teran fikrli, vatanparvar yoshlarni tarbiyalash uchun barcha sharoitlarni yaratishimiz shart va zarur.

Ijtimoiy sohalaridagi barcha sa’y-harakatlar ana shu maqsadlarga qaratilgan. Oxirgi 7 yilda maktabgacha va maktab ta’limi uchun mablag‘ 7 karra oshirilgan. Bu yil 60 trillion so‘m ajratilgan. Maktablarda 1 millionga yaqin, bog‘chalarda 1,5 million yangi o‘rin yaratildi.

Malaka, til bilish, yangi baholash tizimi, fan olimpiadalari kabi mezonlar asosida o‘qituvchilarga 10 dan ortiq ustama joriy qilindi. Bundan samarali foydalangan 60 ming o‘qituvchi hozirda 8-12 million so‘m maosh olyapti.

Bog‘cha tarbiyachilari oyli 65 foizga oshib, maktab o‘qituvchilari maoshiga tenglashdi. Yangi o‘quv yilidan maktab

PARLAMENTLARARO ITTIFOQNING 150-YUBILEY ASSAMBLEYASI YAKUNLARI BO‘YICHA QABUL QILINGAN TOSHKENT DEKLARATSIYASI BMT BOSH ASSAMBLEYASI 79-SESSIVASINING RASMIY HUIJATI SIFATIDA E‘LON QILINDI

Parlamentlararo Ittifoqning shu yil 5-9-aprelda poytaxtimizda bo‘lib o‘tgan 150-yubiley assambleyasi yakunlari bo‘yicha qabul qilingan, ijtimoiy taraqqiyot va adolat yo‘lida parlament harakatlariga bag‘ishlangan Toshkent deklaratsiyasi BMT Bosh Assambleyasi 79-sessiyasining rasmiy hujjati sifatida e‘lon qilindi.

150 IPU ASSEMBLY Tashkent, Uzbekistan 5-9 April 2025

Davomi 2-betda

MUSTAQILLIGIMIZ HIMOYASI YO‘LIDA JON FIDO ETGAN QAHRAMONLAR XOTIRASI QALBLARIMIZDA DOIMO YASHAYDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 9-may — Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan G‘alaba bog‘ida jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvda bildirgan fikrlari



Assalomu alaykum, qadrli yurtdoshlar, muhtaram faxriylar, aziz yoshlar!

Avvalo, barchangizni 9-may — Xotira va qadrlash kuni hamda Ikkinchi jahon urushida erishilgan buyuk g‘alabaning 80 yilligi bilan chin qalbidan samimiy muborakkod etaman.

Xalqimizning “Mehr — ko‘zda”, degan iborasida chuqur ma’no bor. Men sizlarning ko‘pchiligingizni yaxshi taniyman, g‘oyibona kuzatib boraman. Bugun sizlar bilan mana shunday ulug‘ ayyom kunlarda diydor ko‘rishib turganimdan g‘oyat xursandman.

Bizning eng katta boyligimiz — bu tinch va osoyishta hayotimiz, Vatanimiz mustaqilligi, xalqimizning omonligidir. Bugungi kunda barcha harakat va islohotlarimiz, hamma ezgu niyatlarimiz bir ulug‘ maqsadga — davlatimiz istiqloli, el-yurtimizning tinchligi va osoyishtaligini mustahkamlashga qaratilgan. Eng katta maqsad-muddaomiz — mehnatkash, mard va olijanob xalqimizni rozi qilishdan iborat.

Hozirgi vaqtda, o‘zingiz televizorda ko‘ryapsiz, shu yo‘lda butun mamlakatimiz — bu Surxondaryo, Xorazm yoki Qoraqalpog‘istonda bo‘ladimi, Buxoro, Navoiy yoki Samarqandda bo‘ladimi, Jizzax, Sirdaryo yoki Toshkentda, Andijon, Namangan yoki Farg‘onada bo‘ladimi, hatto eng olis tuman va qishloqlarimizda ham barcha-barcha yurtdoshlarimiz bun-yodkor mehnat bilan band. Iloym, mana shunday tinch va osoyishta hayotimizga ko‘z tegmasin!

Bugungi kunda dunyo miqyosida vaziyat qanday tahlilali bo‘lib borayotganini hammamiz ko‘rib-bilib turibmiz. Faqat iqtisodiyotda emas, barcha-barcha sohalarida mavjud tahdid va xavf-xatarlarni hisobga olib, yo‘limizni aniq belgilab, qanchalik qiyin bo‘lmasin, faqat va faqat oldinga qarab borishni davrning o‘zi talab qilmoqda. Eng muhim va asosiy masala — Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlab, odamlarimizni himoya qilishga, real himoya qilishga bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etishimiz, tanlagan yo‘limiz to‘g‘ri ekanini aniq natija va yutuqlar asosida isbotlashimiz kerak.

Hech shubhasiz, bu yo‘lda mard va matonatli xalqimizning Ikkinchi jahon urushi yillarida ko‘rsatgan mislsiz jasorati, buyuk g‘alabani yaqinlashtirishga qo‘shgan beqiyos hisssasi biz uchun doimo kuch-g‘ayrat va faxr-iftixor manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Albatta, hammangizning xabaringiz bor, jahon tarixidagi eng dahshatli ana shu qirg‘in

DUNYO KITOBXONLARI FARG‘ONADA JAMLANDI

Xalqaro festival

Nabiram Mubina kichik kutubxonamdan foydalanishni so‘rab murojaat qildi. Umumta’lim maktabi 4-sinf o‘quvchisining bu boradagi tashabbusini har jihatdan qo‘llab-quvvatladim. U biznikiga tez-tez kelib, kitob o‘qishni odat qildi. Natija uch oy deganda ko‘rindi. Mubina avvaliga o‘zi o‘qiydigan maktab, so‘ng tuman miqyosida yosh kitobxonlar o‘rtasida o‘tkazilgan ko‘rik-tanlov g‘oliblari safidan joy oldi... Eng muhimi, dunyoqarashi kengaydi, har bir masalada fikr-mulohazasiga ega bo‘lib, ustozlari, tengqurlari e’tiboriga tushdi.



Davomi 5-betda



YANGI O‘ZBEKISTONNI BARPO ETISH YO‘LIDA BILIMLI VA VATANPARVAR YOSHLARNI TARBIALASH UCHUN BARCHA SHAROITLAR YARATILADI

Boshlanishi 1-betda

Yoshlarni kasb-hunarga o‘rgatish, to‘g‘ri tarbiyalash, zararli ta’sirlardan asrash ham dolzarb masalalardan.

Yig‘ilishda sohadagi har bir yo‘nalish atroflicha tahlil qilinib, ustuvor vazifalar belgilandi. Maktab ta’limini yangi bosqichga ko‘taradigan tashabbuslar ilgari surildi.

Avvalo, pedagoglarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimiga e’tibor qaratildi. Bu borada Abdulla Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti va uning 13 ta hududiy markazi qayta tashkil etildi. Hizmaty nomidagi oliygoh Milliy pedagogika universitetiga aylantirilib, uning rektori bir vaqtning o‘zida maktabgacha va maktab ta’limi vazirining o‘rinbosari bo‘ldi. Pedagogik mahorat va xalqaro baholash markazi tashkil qilindi.

Bu imkoniyatlar asosida barcha pedagogika oliygoxlari faoliyati tubdan o‘zgartiriladi. Masalan, Termiz pedagogika instituti misolida aytganda, hozirgi fakultetlar o‘rnida aniq, tabiiy, ijtimoiy, filologiya, amaliy fanlar, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha 6 ta oliy maktab tashkil qilinadi.

Fanlar soni maqbullashtirilib, 20 tadan 15 taga, ta’lim yo‘nalishlari 31 tadan 17 taga tushiriladi, o‘quv yuklamasi 20 foizga qisqaradi. Yaqin hududdagi maktablar uning amaliyot bazasiga aylantiriladi.

Institutning xorijiy til sertifikatiga ega 20 nafar o‘qituvchisi shu yil Buyuk Britaniya, Germaniya va Singapur kabi davlatlarga malaka oshirishga yuboriladi.

Kelgusi uch yilda barcha professor-o‘qituvchilar chet elda o‘qitiladi. “Top-100” talik universitetlarda malaka oshirish va ta’lim xizmatlarini olish to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnoma asosida bo‘ladi.

Hududlardagi malaka oshirish markazlari faoliyati ham kengaytiriladi. Ulardagi professor-o‘qituvchilar AQSH, Buyuk Britaniya, Singapur, Germaniyaning ilg‘or dasturlari asosida qayta tayyorlanadi.

Shu bilan birga, o‘rta ta’limdagi 17 ta fanning har biri bo‘yicha alohida tayanch maktablari tashkil etiladi. Tayanch maktabi o‘qituvchisi Malaka oshirish markaziga kelib, o‘z yo‘nalishida xalqaro dasturlar asosida chuqur tayyorlanadi, ularga trener maqomi beriladi. So‘ngra bu trenerlar o‘ziga birlashtirilgan hududda 25 nafar yetakchi o‘qituvchini o‘qitadi. Yetakchi o‘qituvchilar esa o‘z maktabidagi boshqa muallimlarning malakasini oshirib boradi.

Bundan tashqari, universitet, markaz va maktablardan muallimlar xorijga malaka oshirishga yuboriladi.

Bugungi kunda xususiy oliygoxlarga keng yo‘l ochilgan. Lekin ularda pedagogika yo‘nalishidagi talabalarning 70 foizi maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim va filologiya bo‘yicha tahsil olyapti. Birortasida kimyo, biologiya va fizika bo‘yicha muallim tayyorlanmaydi. Vaholanki, maktablarimizda aniq va tabiiy fanlar bo‘yicha o‘qituvchilar yetishmaydi.

Shu bois, bundan buyon, xususiy oliygoxlardagi pedagogik yo‘nalishlar davlat institutlariga muvofiqlashtiriladi. Ulardagi pedagoglar va talabalar bilimi

tashqi diagnostikadan o‘tkaziladi. Bu orqali nodavlat oliygoxlarda pedagoglar tayyorlash sifati nazoratga olinadi.

Davlatimiz rahbari yoshlarni nufuzli xorijiy universitetlarda o‘qitish masalasiga alohida to‘xtaldi. Farzandlarimiz juda iqtidorli ekani, faqat ularni to‘g‘ri yo‘naltirib, maqsadli tayyorlash zarurligi ta’kidlandi.

Shu maqsadda “Prezident iqtidorli farzandlari” milliy dasturi boshlanadi, AI-Beruniy nomidagi xalqaro maktab tashkil etiladi. Unga 8-sinf bitiruvchilaridan 60 nafari saralab olinib, reytingi yuqori oliygoxlarga maqsadli tayyorlanadi.

Bundan tashqari, Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablardan 208 nafar maslahatchi umumta’lim maktablariga birlashtiriladi. Bu maslahatchilar maktablardan har yili eng salohiyatli 3 ming o‘quvchini seleksiya qilib, AQSHning Garvard, Yel, Kolumbiya, Kornel kabi “Pechak ligasi” oliygoxlariga tayyorlaydi.

Bilimsevarlikka poydevor qo‘yishda maktabgacha ta’limning o‘rni juda muhim. Bugungi kunda yurtimizda 7 mingta davlat va 31 mingdan ziyod xususiy bog‘chalar faoliyat yuritmoqda. Olti yoshli bolalarning 96 foizi maktabga tayyorlov guruhlariga qamrab olingan. Keyingi yili bu raqam 100 foizga chiqadi.

Endi ilg‘or xorijiy tajriba asosida maktabga tayyorlov guruhlari va boshlang‘ich ta’lim o‘quv dasturlari o‘zaro uyg‘unlashadi. Buning uchun bog‘cha bolalarini matematika, tabiiy fanlar va texnologiya yo‘nalishlarida tanqidiy va kreativ fikrlashga o‘rgatadigan dasturlar ishlab chiqiladi.

Shuningdek, bog‘cha tarbiya-chilarining malakasi, mahorati va psixologik tayyorgarligini oshirish uchun kasbiy sertifikatlash tizimi joriy etiladi.

Yig‘ilishda o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish chora-tadbirlari ham belgilandi.

Shu maqsadda “Barkamol avlod” maktablari, “Yoshlik” sport jamiyati va Respublika o‘quvchi-yoshlar markazi yagona tizimga birlashtiriladi. Ular ta’mirlanib, zamonaviy yo‘nalishlarga mos jihozlanadi, xorijiy tillar, sun‘iy intellekt, dasturlash va animatsiya kabi yangi to‘garaklar ochiladi.

O‘quvchilar o‘rtasida turizmni rivojlantirish bo‘yicha ham yangi tizim yaratiladi. Qoraqalpog‘iston, Xorazm, Samarqand, Buxoro va poytaxtdagi “Barkamol avlod” markazlarida kamida 100 o‘rinli “Bolalar sayyohlik bazasi” tashkil qilinadi. Har yili 1 million o‘quvchi uchun O‘zbekiston bo‘ylab sayohatlar uyushtiriladi.

Bolalarni zararlaxborotlardan himoya qilish — hammani o‘ylantirayotgan muammo. Shu bois, Prezident qaroriga muvofiq, maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzurida Bolalar kontentini rivojlantirish markazi tashkil qilindi. U mahalliy ijodkorlarga milliy kontentlar yaratish bo‘yicha buyurtma beradi, sohada kadrlar tayyorlashni tashkil qiladi.

Shuningdek, yozgi ta’tilda yoshlarni oromgoxlar va foydali mashg‘ulotlarga jalb etish, sport musobaqalari, intellektual o‘yinlar va san’at kechalari o‘tkazish bo‘yicha vazifalar belgilandi.

O‘ZA

“

Nafaqat davlat organlari, jumladan, parlamentlar hamda milliy va munitsipal miqyosda faoliyat yurituvchi, balki aholining ijtimoiy rivojlanish sohasidagi ehtiyojlarini turli yo‘llar bilan qondiradigan davlat boshqaruvi organlari va ommaviy axborot vositalarini ham o‘z ichiga olgan institutlar mavqeini mustahkamlash. Shu munosabat bilan jahon miqyosida xalqaro moliya institutlari, Xalqaro mehnat tashkiloti va umuman, BMT tizimi kabi ko‘p tomonlama tashkilotlarga ehtiyoj borligi ta’kidlangan.a

PARLAMENTLARARO ITTIFOQNING 150-YUBILEY ASSAMBLEYASI YAKUNLARI BO‘YICHA QABUL QILINGAN TOSHKENT DEKLARATSIYASI BMT BOSH ASSAMBLEYASI 79-SESSIIYASINING RASMIY HUIJJATI SIFATIDA E‘LON QILINDI

Boshlanishi 1-betda

Unda ijtimoiy taraqqiyot borasidagi sa’y-harakatlarni yangilashga qaratilgan ishlar, mavjud va yuzaga kelayotgan muammolar yechimini birgalikda izlash zarurligi alohida ta’kidlangan.

Deklaratsiyada hukumatlarga ijtimoiy rivojlanishga kompleks yondashish va har bir davlat tomonidan mustaqil ravishda quyidagi uchta yo‘nalish bo‘yicha belgilanishi kerak bo‘lgan siyosiy islohotlar paketini amalga oshirish tavsiya etilgan alohida qayd etiladi:

Birinchisi, odamlarga, ya’ni ularning ta’limiga, sog‘lig‘iga va atrof-muhitiga, shuningdek, hayotning barcha bosqichlarida odamlar gullab-yashnashi va imkon qadar to‘liq hayot kechirishi uchun ijtimoiy taraqqiyotning asosiy sharti bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni o‘rnatish, biznes boshlash yoki munosib ish topish imkonini beradigan ko‘nikmalarga sarmoya kiritish.

Ikkinchisi, iqtisodiyotni demok-ratlashtirish, u barcha insonlar manfaatlariga javob berishi, ularning salohiyatini kuchaytirishi, ehtiyojlarini qondirishi uchun har bir kishi muvaffaqiyatga erishish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. A’zo mamlakatlarning soliq-byudjet va pul-kredit

siyosati ham sifati bandlikni ta’minlashga, jumladan, tadbirkorlikni rivojlantirishga, qarorlar qabul qilish jarayonida barcha odamlarni, ayniqsa, ayollarni va yoshlarni jalb etish orqali ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashga ko‘proq yo‘naltirilishi lozim.

Uchinchisi, nafaqat davlat organlari, jumladan, parlamentlar hamda milliy va munitsipal miqyosda faoliyat yurituvchi, balki aholining ijtimoiy rivojlanish sohasidagi ehtiyojlarini turli yo‘llar bilan qondiradigan davlat boshqaruvi organlari va ommaviy axborot vositalarini ham o‘z ichiga olgan institutlar mavqeini mustahkamlash. Shu munosabat bilan jahon miqyosida xalqaro moliya institutlari, Xalqaro mehnat tashkiloti va umuman, BMT tizimi kabi ko‘p tomonlama tashkilotlarga ehtiyoj borligi ta’kidlangan.

Bundan tashqari, hujjat barcha parlamentlar va a’zolarini Toshkent deklaratsiyasini amalga oshirish uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga va o‘zgarishlar jarayonini umumjahon ishtiroki uchun ochiq bo‘lgan milliy rejalarni ishlab chiqishdan boshlashga chaqiradi.

“Dunyo” AA

Nyu-York shahri



SIFATLI TIBBIY XIZMAT AHOLIGA YAQINLASHMOQDA



Sevara UBAYDULLAYEVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Chunki kasallikni davolashdan ko‘ra, oldini olish oila uchun ham, davlat uchun ham samarali hamda foydalidir. Sog‘liqni saqlash inson hayoti uchun eng kerakli ne’mat bo‘lgani tufayli davlatimiz ijtimoiy siyosatining muhim yo‘nalishi etib belgilangan.

Keyingi yillarda mamlakatimizda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimiz sog‘lig‘ini, aholining sog‘lom turmush kechirishini ta’minlash, onalik va bolalikni muhofaza qilishga katta e’tibor qaratilmoqda. Islohotlar, eng avvalo, birlamchi tibbiyot bo‘g‘ini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini o‘zgartirishdan boshlandi. Har bir mahallada xonadonbay ishlaydigan patronaj xizmatini tashkil etish orqali sog‘liqni saqlash tizimi aholiga yaqinlashtirildi.

Yuqori malaka va texnologiyalar talab qiladigan tibbiy xizmatlar ko‘lami kengayib, tibbiyot tashkilotlari va aholini dori-darmon, tibbiyot buyumlari bilan ta’minlash uchun byudjetdan ajratilayotgan mablag‘ hajmi yildan yilga o‘rtib borayotir. Xususan, so‘nggi 7 yilda tibbiyotga ajratilayotgan mablag‘ 6 karra oshib, joriy yilda 42 trillion so‘mga yetdi.

Albatta, keyingi yillarda tibbiyot sohasidagi o‘zgarishlar o‘z-o‘zidan bo‘layotgani yo‘q. Bunda davlatimiz rahbarining qator farmon va qarorlari, sohaga oid huquqiy hujjatlar muhim dasturulamal bo‘lib xizmat qilayotir.

Prezidentimiz raisligida shu yil 7-may kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida

Issiq jon isitmasiz bo‘lmaydi, deyishadi. Har bir inson kasal bo‘lishi, shifokor ko‘magiga ehtiyoj sezishi mumkin. Kunda bo‘lmasa-da, kunora tibbiyot muassasalariga murojaat qiladiganlar bor. Aholi hayotida katta o‘rin tutadigan sohalaridan biri sog‘liqni saqlash tizimidir.

ham tibbiyot sohasidagi ishlar tahlil qilinib, dolzarb vazifalar belgilandi. Xususan, birlamchi bo‘g‘in va ixtisoslashgan muassasalarda xizmatlar sifati oshirish, dori iste’molini tartibga solish hamda tibbiy ta’limni takomillashtirish masalasiga alohida e’tibor qaratildi.

Mamlakatdagi har o‘n ming kishiga 27 shifokor to‘g‘ri keladi. Bu AQSH, Buyuk Britaniya, Finlyandiya va Kanadada esa bu raqam 1,5 barobar kam hisoblanadi. “Ko‘rib turib, bizda tibbiyot xodimlari sonida ham, moliyalashtirishda ham muammo yo‘q. Lekin sifat-chi? Bu borada e’tirozli savollar juda ko‘p”, dedi Prezidentimiz.

Masalan, mahallada birlamchi bo‘g‘in to‘g‘ri ishlamagani uchun tumanlarda kasallanish va og‘ir asoratlar kamaymayapti. Yuqumli bo‘lmagan kasalliklar mamlakatimiz iqtisodiyotiga har yili 1 milliard dollar atrofida zarar keltiryapti. Tez tibbiy yordamdagi jami chaqiruvlarning to‘rtidan biri surunkali kasalligi bor bemorlarga to‘g‘ri kelmoqda.

Ba’zi joylarda tez yordam xuddi poliklinikadek bo‘lib qolgan.

Viloyat va tuman shifoxonalarida xodimlar soni, o‘rinlar, mablag‘lar to‘g‘ri taqsimlanmagan.

Demak, barchamiz davlatimiz rahbarining o‘rinli tanqidlaridan to‘g‘ri xulosa qilishimiz kerak. To‘g‘ri, yildan yilga tibbiyot tizimida ijobiy o‘zgarish va yangilanishlar bo‘y ko‘rsatyapti. Ammo shunga qaramay, birlamchi bo‘g‘inda bemorlarga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifati pastligi sohadagi eng og‘riqli muammolardan biri bo‘lib kelmoqda.

Masalan, o‘tgan yillar davomida yurtimizdagi o‘lim holatlari asosan, ana shu bo‘g‘indagi kamchiliklar, masalan, yurak-qon tomir kasalliklariga o‘z vaqtida to‘g‘ri tashxis qo‘ya olmaslik tufayli sodir bo‘lgan. Shu ma’nod, tibbiyotning birlamchi bo‘g‘inini zamonga qarab, xalqimizning talab va ehtiyojlarini inobatga olgan holda tashkil etish kechiktirib bo‘lmaydigan muhim vazifadir. Zero, kasalliklar profilaktikasi, ularni erta



aniqlash va asoratining oldini olish ishlari aynan shu bo‘g‘inda amalga oshiriladi.

Har o‘yning oxirgi haftasida saylovchilar bilan muloqotlar o‘tkazamiz. Ochig‘i, uchrashuvlar davomida aholi tomonidan tibbiy xizmat sifati oshirish bo‘yicha ko‘plab takliflar, murojaatlar bo‘ladi. Fuqarolar eng ko‘p murojaat qiladigan masala ham ko‘p hollarda birlamchi tibbiy yordam muassasalari yuzasidandir. Agar bu tizimda ish to‘g‘ri tashkil etilsa, aholi e’tirozlariga o‘rin qolmaydi.

Yig‘ilishda davlatimiz rahbari bu masalaning aniq yechimlarini ko‘rsatib berib, muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Belgilab berilgan aniq va qat’iy vazifalar mamlakatimiz sog‘liqni saqlash tizimini zamon talablari darajasiga olib chiqishga xizmat qilishi aniq. Xususan, tibbiy yordamning kafolatlangan paketi tasdiqlanib, paket doirasida tibbiy xizmat va dori-darmonlar to‘liq byudjetdan qoplanishi yurtdoshlarimizni faollikka chorlab, harakatga keltirgan rosti.

Oxirgi paytlarda joylarda shifokorlardan aholi noroziligi oshib, bemorlarning yaqinlari va shifokorlar o‘rtasida turli nizolar kelib chiqayotgani haqida turli xabarlar tarqalmoqda. Chunki sohada kadrlar yetishmovchiligi, kam sonli shifokorlar ish yuklamasining yillar davomida yuqori bo‘lib qolayotgani sifati tibbiy xizmat ko‘rsatishga xalal bermoqda.

Poliklinikada akusher-ginekologlar 2 barobar ko‘paytirilishi, har 3 ming bola uchun 1 tadan pediatri shtati yangidan qo‘shilishi, bundan buyon birlamchi bo‘g‘inda yarim yoki 0,25 stavka bo‘lmasiligi, barcha shifokor va hamshiralari faqat to‘liq stavkada ishlashi yuqoridagi kabi muammolarning oldini olishga xizmat qiladi.

Qisqasi, Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan boradagi vazifalar sohadagi islohotlarni davom ettirib, tibbiy xizmat sifati oshirish, birlamchi bo‘g‘inni zamon talablariga moslashtirish, tizim xodimlarini faol qo‘llab-quvvatlash va ularga sharoit yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Birlamchi tibbiy xizmatning davr talablariga mos ravishda yaxshilanishi tibbiyotning aholiga yaqinlashishi va o‘z navbatida, aholining hayotdan roziligiga xizmat qiladi. Tizimdagi islohotlardan kutilayotgan maqsad ham shu aslida. Mana shu ezuq maqsadning qadam-baqadam ro‘yobga chiqishi “Inson qadri uchun” tamoyilining jamiyatimiz hayotida, xususan, sog‘liqni saqlashda amaliy tasdiq’ini topishidan dalolat beradi.

Yig‘ilishda belgilab berilgan ustuvor vazifalar nafaqat soha vakillari, balki biz — deputatlar zimmasiga ham katta mas’uliyat yuklaydi. Bu jarayonda ushbu vazifalarning samarali bajarilishi ustidan doimiy ravishda parlament nazoratini olib borishimiz, sohaning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish kerak.

“

O‘zbekiston 1994-yilda Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish uchun rasmiy ariza taqdim etgan bo‘lsa-da, faol muzokaralarga 2017-yildan kirishildi. Bu jarayon mamlakatning global iqtisodiyotga integ-ratsiyalashuvi, eksport salohiyatini oshirish va investitsion muhitni yaxshilashda muhim qadam hisoblanadi.

“

JSTga a’zo bo‘lish eksport-import balansini yaxshilash, tashqi savdodagi to‘siqlarni bartaraf etish va global qoidalar asosida savdo qilish imkonini beradi. Mahsulotlarimizni jahon bozoriga to‘siqsiz yetkazib berish imkoniyatimizni oshiradi. Bozor islohotlarini rivojlan-

tirib, monopol tizimlarni kamaytirishga olib keladi. Qonunchilik, tarif, sanitar va fitosanitar normalarni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga asos bo‘ladi.

O‘zbekiston xalqaro savdo standartlariga moslashish orqali eksport imkoniyatlarini kengaytirib oladi. Turli to‘siqlar qisqarib, bozorda raqobatbardoshlik oshadi.

Shuningdek, iqtisodiyotda qonuniy kafolat va shaffoflik ta’minlanib, investorlarning ishonchi mustahkamlanadi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar xalqaro standartlarga moslashadi. Ya’ni ular faqat o‘zimizda emas, dunyoga chiqishga intiladi. Natijada katta loyiha va tashabbuslar, g‘oyalar vujudga kelishiga zamin yaratiladi. Bu iqtisodiyot uchun ham, jamiyat uchun ham juda manfaatli.

Ilmii nuqtayi nazardan, JSTga a’zolik milliy bozorni raqobatga ochadi. Shuning uchun kichik va o‘rta biznesni tayyorlash, ichki ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmi kuchaytirilishi lozim.

Umuman olganda, O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lishi iqtisodiy islohotlarning mantiqiy davomi sifatida global bozordagi ishtirokimizni mustahkamlaydi. Bu jarayon nafaqat tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantiradi, balki ichki iqtisodiy tizimda shaffoflik, raqobat va samaradorlikni oshirishga ham turki beradi. Bugungi sa’y-harakatlar ana shu maqsadlarga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Abduvohid ABDUQAYUMOV, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi



MUSTAQILLIGIMIZ HIMOYASI YO‘LIDA JON FIDO ETGAN QAHRAMONLAR XOTIRASI QALBLARIMIZDA DOIMO YASHAYDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 9-may — Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan G‘alaba bog‘ida jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvda bildirgan fikrlari

Boshlanishi 1-betda

Biz mana shu G‘alaba bog‘ini bejiz barpo etganimiz yo‘q. Bu ulug‘vor majmua — xalqimizning fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan hissasini yaqqol ko‘rsatib turadigan qutlug‘ maskan, ulug‘ ziyoratgohdir. Ayni vaqtda bu farzandlarimizga ajdodlarimiz jasoratidan saboq beradigan o‘ziga xos tarbiya o‘chog‘i, desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Eng muhimi, ushbu bog‘ xalqimizning Vatan himoyasi yo‘lidagi qahramonlik an‘analari barhayot ekani, ularni har bir avlod sharaf bilan davom ettirishi zarurligini barchamizga eslatib, ta’kidlab turadi.

Bunday bog‘ el-yurtimizning orzusi edi. Mana, odamlar bu tabarruk maskanga qanday intilishini ko‘rsatadigan bir misol — o‘tgan qisqa davrda bu yerga 3 milliondan ziyod kishi kelib, ziyorat qilib ketgan. Ularning orasida keksayu yoshlar, viloyatlardan, uzoq-uzoq qishloqlardan, mahallalardan kelgan odamlar, chet elliklar bor. Ular ushbu majmuadagi “Shon-sharaf” muzeyi va boshqa yodgorliklarda o‘zining bobosi, otasi, buvisi yoki qarindoshlariga oid hujjatlar, rasmlar va lavhalarni ko‘rib, xursand bo‘lib, katta taassurot va g‘urur bilan ketyapti. Bir so‘z bilan aytganda, bu bog‘ning kelgusida ezgu maqsadlarga xizmat qilishini inobatga olib, uni ham tarixiy, ham zamonaviy talablar asosida mana shunday puxta barpo etganimiz har tomonlama to‘g‘ri bo‘lganini bugun hayotning o‘zi isbotlamoqda.

G‘alaba bog‘i — bu hamisha barhayot qahramonlarimiz timsoili, o‘zligimiz ifodasi, qanday sabot-matonatli xalq ekanimizning yorqin amaliy tasdiq‘idir.

Eng asosiysi, biz bu majmunani ham shaklan, ham mazmunan boyitib, kengaytirib boryapmiz. El-yurtimiz, xorijiy mamlakatlardagi do‘stlarimiz, hamkorlarimiz bu borada katta yordam beryapti. Shu tariqa xalqimizning Ikkinchi jahon urushi va mustaqillik davridagi qahramonligi chuqur o‘rganilib, yangi-yangi materiallar, hujjatlar topilib, e‘lon qilib borilmoqda.

Ana shu ishlarning davomi sifatida bog‘ hududida **“Xotira nuri” kompozitsiya-si** barpo etildi. Ko‘rib turganingizdek, parvoz qilayotgan bir juft qush shaklidagi bu monumental asar Ikkinchi jahon urushi janggohlarida jon olib-jon bergan otabobolarimiz hamda front ortida mehnat qilgan vatandoshlarimizning tengsiz jasoratini madh etadi. U avlodlar o‘rtasidagi vorisiylik an‘analarini namoyon etishi bilan ham g‘oyat ahamiyatlidir.

Hech shubhasiz, mustaqillik yillarida Vatanimiz sarhadlarini daxlsiz saqlash, bugungi tinch va osoyishta hayotni himoya qilish yo‘lida mardlarcha halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlarining xodimlari ham bizning qahramonlarimiz. Ular biz uchun hamisha barhayotdir. Xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz mustaqil O‘zbekistonning ham ana shunday qahramonlari borligini bilishi va ularni hech qachon unutmasligi zarur.

Men 2023-yil mart oyida Surxondaryoda sizlarning ko‘pchiligingiz — ana shunday marhum askar va ofitserlarimizning oila a‘zolari, yaqinlari bilan uchrashganman, fikr va takliflaringizni eshitganman. Mana shu qahramonlarimiz xotirasiga ham yodgorlik ko‘rnatdik, degan orzu, kerak bo‘lsa, armon meni doim o‘ylantirib kelardi. Bu nafaqat mening, balki ana shunday botir va dovyurak ona yurt posbonlarini tarbiyalagan sizdek otalarning, qolaversa, qahramonlarimizning ayollari va farzandlarining, butun xalqimizning orzusi edi, desak, albatta, xato bo‘lmaydi.

Xalqimizning ana shu bahodir o‘g‘lonlarimizga bo‘lgan hurmat-ehtiromini ta’sirchan bir shaklda aks ettirish, hayotdan erta ketgan bu navqiron fidoyi insonlarning Vatanimizga bo‘lgan mehri, sadoqati va jasoratini ana shu yodgorlikda ko‘rsatish haqida o‘z fikrlarimni aytib, arxitektor va haykaltaroshlar, tarixchi olimlar, ijodkor ziyolilar bilan juda ko‘p muloqot qilganman.

Ana shunday intilishlarimiz natijasi sifatida bugun G‘alaba bog‘ida yangi bir yodgorlik — **“Millat fidoyilari”** monumenti barpo etilganini barchamiz ko‘rib turibmiz.

Albatta, ushbu monumentda nomlari zarhal harflar bilan muhrlab qo‘yilgan 196 nafar marhum harbiy xizmatchi va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining har biri, Ikkinchi jahon urush qatnashchilari kabi, hayotning ko‘p-ko‘p ne‘matlaridan bahramand bo‘lishga ulgurmagan. Bu sher-yurak o‘g‘lonlarimizning ham kelajak orzulari bor edi, ularni oldinda yaxshi va yorug‘ kunlar, ota-onasi, oilasi, shirindan-shirin farzandlari kutayotgan edi. Lekin mamlakatimiz istiqloli, xalqimiz tinchligiga nisbatan real xavf tug‘ilgan paytda, ular bir daqiqaga ham o‘ylab o‘tirmasdan, jonajon Vatanimiz himoyasi yo‘lida o‘zlarini qalqon qilishdi. Bu fidoyi harbiylar shu tariqa bugungi Yangi O‘zbekiston uchun mustahkam zamin yaratib ketishdi. Shu bois, biz ularning xotirasi, ruhi poklari oldida doimo qarzdormiz.

Men shu haqda ko‘p o‘ylayman. Nafaqat o‘ylayman, joylarda bo‘lganimda viloyat va tuman hokimlari, nuroniylarimiz, mahallalar va jamoatchiligimiz vakillarini qahramon jangchilarning oilalari haqida doimo g‘amxo‘rlik qilishga, ularning jasoratini ko‘proq targ‘ib etishga chaqirib kelaman.

Mana, bugungi marosimda hurmatli oqsoqollarimiz, nuroniylar, ko‘pni ko‘rgan akalarimiz, o‘z hayoti davomida doimo ko‘pchilikka namuna bo‘lib kelayotgan olijanob insonlar qatnashmoqda. Ular tinch va yorug‘ kunlarning qadriini, bugungi nurli, fayzli hayot nimaning hisobidan kelganini boshqalardan ko‘ra yaxshi tushunishadi.

Albatta, **“Millat fidoyilari”** xotira yodgorligini imkon qadar ko‘proq odam kelib ko‘rishga intiladi. Lekin biz bunday



odam aslo el-yurtning nazaridan chetda qolmasligini, kelgusi avlodlar ularni esidan chiqarmasligini chin yurakdan his etishini istar edim. Ana shundagina xalq hayotida fidoyilik va qahramonlik an‘analari bardavom bo‘ladi. Ana shundagina inson qadri va hayoti naqadar buyuk boylik ekani yaqqol ayon bo‘ladi.

Hayot bor ekan, butun jamiyatda, albatta, har jahbada kurash ketadi. Hozirgi kunda biz ham go‘zal, fayzli va farovon hayot uchun, tinchlik uchun kurashyapmiz. Bu kurash har kuni, har daqiqada davom etmoqda.

oila farzandlari” deb sizlarga alohida hurmat va e‘tibor bilan qarashadi.

Bu — inson uchun katta baxt va sharaf, ayni paytda ulkan mas‘uliyat ham, desak, adashmagan bo‘lamiz.

Sizlar shunga doimo munosib bo‘lasiz, deb ishonaman.

Hurmatli shoir va adiblarimiz, jurnalistlarimiz ana shunday oilalar haqida, ularning qahramon otalari haqida yangi asarlar, kitoblari yozadilar, deb umid qilaman. Mana shunday oilalarning ayollari, farzandlarini boshqalarga namuna qilib ko‘rsatsak, bu ham albatta, milliy o‘zligimizni anglashga, g‘ururimiz va ma‘naviyatimizni kuchaytirishga, xalqimizni yanada birlashtirishga xizmat qiladi.

Buyam tarbiya, buyam tarix, buyam ibrat bo‘ladi. Ayni paytda bu ana shu oilalar to‘g‘risida yana bir ma‘naviy g‘amxo‘rlik va e‘tibor, ularning farzandlariga yaxshilik qilish, umr yo‘ldoshlariga shukronalik, sabr tilash bilan barobaridir.

O‘zingiz ko‘ryapsiz, “to‘qlikka sho‘xlik” deganlaridek, hozirgi zamonda bizga yarashmaydigan ishlar ham, afsuski, ko‘p bo‘lyapti. Buni ham unutmasligimiz shart. Bugungi erkin hayot berayotgan imkoniyatlarni hamma ham to‘g‘ri qabul qilmayapti. Buyam ayni haqiqat.

Erkinlik va ozodlikning, tinchlikning qadriga yetish — bu oson emas. Bu — o‘ta og‘ir va mashaqqatli ish. Buning uchun ham ilm, tarbiya, madaniyat va iroda kerak. Shu bois, men **“Biz hali izlanishdamiz”** degan fikrni ko‘p takrorlayman. O‘rganish, izlanish hech qachon to‘xtamasligi kerak. Oldinga qarab intilgan xalq va millatning kelajagi albatta yorug‘ bo‘ladi.

Yaqinda Xorazmda bo‘lganimda bir guruh yoshlar bilan uchrashdim. Urganchlik qizimiz Maftuna Ochilovaning o‘ta haya-jonli so‘zlari haliyam qulog‘imda jaranglab turibdi: “Muhtaram Prezident, men otasiz o‘sganman, onam uch nafar farzandni bir o‘zi zimgar qilardi. Buz kambag‘al oila edik, turmushimiz, sharoitimiz juda og‘ir edi. Mana, endi kambag‘allikdan qutuldik.

Sizning tashabbusingiz bilan, muhtaram Prezident, kitobxonlik bo‘yicha o‘tkazilgan tanlovda yoshlar orasida respublikada birinchi o‘rinni egalladim va Sizning sovg‘angiz — elektromobilga ega bo‘ldim. O‘sha paytdagi quvonchimni so‘z bilan ifoda etib berolmayman!” — dedi qizimiz ko‘zida yosh bilan.

Ko‘rdingizmi, dunyoda adolat va haqiqat mezonini baribir mavjud. Oddiy bir qizimiz shu gaplarni yig‘lab-yig‘lab aytganida, mening ko‘nglim ham beixtiyor boshqacha bo‘lib ketdi. Buni men ham so‘z bilan ifoda etib berolmayman. Qarang, egzulik qanday buyuk, qanday qudratli kuch!

Hayotda doimo mana shunday ezgu ishlarga intilib yashasak, bir-birimizdan mehrimiz, yordamimizni ayamasak, ko‘zlayotgan ulug‘ maqsadlarimizga albatta yetamiz.

Qarang, shu xorazmlik qizimiz butun qalbi bilan tirishib, intilib, tinimsiz mehnat qilib, mayli, qiynalib bo‘lsa ham, dastlabki katta yutuqqa erishibdi. Onasi ming bir mashaqqat bilan oilasini qashshoqlikdan olib chiqqan bo‘lsa, bu qizim, onasidan ibrat olib, bu oila ma‘naviy jihatdan qanday kuchli ekanini butun yurtimizga ko‘rsatdi. Buyam jasorat va matonat namunasi.

Endi bu oilani hech kim kambag‘al oila deb aytolmaydi. Mana shunday kuchli qizlari bo‘lgan oila hech qachon kambag‘al bo‘lmaydi. Bu — hayotning azaliy haqiqati.



O‘zingiz tasavvur qiling, kitob mutolaasi bo‘yicha millionlab O‘zbekiston yoshlari orasida birinchi o‘rinni egallash uchun bitta emas, yuzlab, balki, minglab kitob o‘qish kerak. Chunki bu tanlov dastlab mahalla va tumanda, shaharda, viloyat darajasida bo‘ladi, oxiri respublika miqyosida yakuniga yetadi. Uni juda bilimli va talabchan o‘qituvchi va murabbiylar, adabiyotshunos olimlar, shoir va adiblar nazorat qilib boradi.

Shu ma’noda, Maftuna Ochilova kitobxonlik bo‘yicha mamlakatimizda birinchi o‘rinni olgani — katta natija. Lekin bu farzandimizda o‘ziga, hayotga, odamlarga ishonch paydo bo‘lgani, eng muhimi, adolat yuzaga chiqqanini men undan ham katta yutuq deb hisoblayman.

Qani endi, barcha yoshlarimiz salgina telefonni chekkaga surib qo‘yib, kitobga ko‘proq e‘tibor bersa. Ularga nasihat qilib, kitob naqadar buyuk mo‘jiza ekani, unda hayot sirlari va hikmatlari yashiringanini bolaligidan ongiga singdirib borsak, farzandlarimiz kitob bilan do‘st bo‘lsa, ularning fikri ham, dunyoqarashi ham boshqacha bo‘ladi. Ularni hech qanday yovuz kuch yomon yo‘llarga boshlay olmaydi. Mana, tarbiyaning siri, kaliti qayerda!

Shuning uchun har bir ishimiz zamirida ma‘naviyat, ma‘rifat, ilm va hikmat mujassam bo‘lishi kerak. Shundagina aziz Vatanimizning ertangi kuniga ishonchli poydevor qo‘ygan bo‘lamiz. Bu poydevor mustahkam bo‘lishi uchun har kuni tinimsiz izlanishimiz, mehnat qilishimiz shart.

“Inson qadrini e‘zozlagan davlat hech qachon kam bo‘lmaydi. Men mana shu boqqqa, mana shu yodgorlikni tomosha qilishga kelgan kishi Vatan mustaqilligi uchun kurashgan, jon fido etgan odam aslo el-yurtning nazaridan chetda qolmasligini, kelgusi avlodlar ularni esidan chiqarmasligini chin yurakdan his etishini istar edim. Ana shundagina xalq hayotida fidoyilik va qahramonlik an‘analari bardavom bo‘ladi. Ana shundagina inson qadri va hayoti naqadar buyuk boylik ekani yaqqol ayon bo‘ladi.”

Mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog‘ida fidoyilarcha halok bo‘lgan qahramonlarimizni o‘zi tug‘ilib o‘sgan mahallasi, tumani biladi, lekin butun xalq bilmaydi-ku! Mana endi, Ikkinchi jahon urushi davrida fashizmga qarshi jang qilgan katta avlod vakillari bilan birga, ularning nomlari ham tariximiz sahifalariga abadiy muhrlandi. Endi ularni butun xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz albatta biladi. Ushbu badiiy obidada ularning nomlari va siymolari aks ettirilgani — bu yuksak e‘tirof va ehtirom. Butun xalq, butun millatning e‘tirofi, ehtimodidir.

Mustaqillik — bu Xudoyi taoloning bizga cheksiz marhamati va ne‘matidir.

Ana shu buyuk ne‘matni, buyuk istiqlolimizni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash barchamizning muqaddas burchimiz.

Shu yo‘lda el-yurtimizga munosib xizmat qilishimiz lozim. Bu haqda qancha ko‘p gapirsak, xalqimiz hozirgi tahlikali zamonda yanada birlashib, yangi-yangi fidoyi va faol qahramonlarni voyaga yetkazadi.

Eng muhimi, jahon maydonida mag‘rur bosh ko‘tarib, shonli tariximizga munosib xalq bo‘lib yashaymiz. Bugun aynan shu g‘oyalarni faol targ‘ib etishimiz zarur.

Aziz do‘stlar!

Bugungi tarixiy voqea — **“Millat fidoyilari”** yodgorligining ochilishi bilan barchangizni chin qalbidan samimiy tabriklayman.

Mustaqillik yillarida aziz jonini ayamasdan, bizning tinchligimiz va osoyishtaligimizni asrash yo‘lida qahramonlik ko‘rsatgan mard va jasur farzandlarimizning muborak xotirasi oldida chin dildan ta’zim qilaman.

Takror va takror aytishdan charchamayman: biz bunday qahramon o‘g‘lonlarimizni hech qachon unutmaymiz. Ular doimo biz bilan birga yashaydi.

Vatanimizga har tomonlama munosib qahramon o‘g‘lonlarimizga shon-sharaflar bo‘lsin!

Doimo sog‘-omon bo‘linglar, katta rahmat sizlarga!

*Toshkent shahri, G‘alaba bog‘i
2025-yil 8-may*

4

2025-yil 16-may, 99-son

www.yuz.uz

yuz.uznews

yuz_official

yuz.uz_news

yuz

Mulohaza

“AVTOMOBILSIZ KUN”

NEGA OMMALASHIB KETMAYAPTI?

2024-yilning mart oyidan boshlab har oyning to'rtinchi chorshanba kuni poytaxtimizda avtomobillar harakatini (jamoat transportlari, maxsus va shoshilinch yordam xizmatlaridan tashqari) qisqartirishga qaratilgan “Avtomobilsiz kun” jamoatchilik loyihasi o'tkazib kelinmoqda.

“Avtomobilsiz kun” loyihasida vazirlik va idoralar, hududiy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbar va mas’ul xodimlari ish joyiga jamoat transportida kelib, namuna ko’rsatib borishi belgilangan.

Bu loyihadan ko’zlangan asosiy maqsad shahar muhitini sog'lomlashtirish, atmosferaga chiqariladigan zararli gazlar miqdorini kamaytirish, yo'llardagi tirbandliklar oldini olish hamda fuqarolarni piyoda yurish va ekologik toza transport vositalaridan foydalanishga undashdir. Biroq ko'zlangan maqsadlarga qaramay, loyiha kutilganidek ommalashmayapti. Xo'sh, buning asosiy sabablari nimada?

Jamoat transporti infratuzilmasida kamchiliklar mavjud

Har kuni shaxsiy avtomobilda ishga qatnaydigan kishi uchun jamoat transportida ishga borib kelish sezilarli murakkabliklar keltirib chiqaradi. So'ngi yillarda jamoat transporti tizimini takomillashtirish bo'yicha ko'plab tashabbuslar amalga oshirilgan bo'lsa-da, xususan, avtobuslar harakatida hanuz kamchiliklar mavjud.

O'zim har kuni poytaxtning Yangihayot tumanidan Yashnobod tumaniga ishga qatnayman. To ishxonaga yetib kelgunimcha uch marta transport almashtirishimga to'g'ri keladi. Vaqtga chaqsak, bunga taxminan bir soatdan oshiqroq sarflayman. Lekin ba'zan ehtiyoj yuzasidan taksidan foydalanganimda bu muddat yarim soatdan ko'proqqa qisqaradi. Bu yengil avtomobil tezroq yurishiga emas, ko'proq uch marta transport almashtirishimga sarflanadigan vaqtga bog'liq bo'ladi. Hisoblab ko'rsam, bir transportdan tushib keyingisini kutishim, unga chiqqunimcha o'rtacha 7-8 daqiqa sarflayman. Demak, uydan ishxonagacha bitta avtobusda yetib kela olsam, muddat yengil avtomobilidagi bilan deyarli bir xil bo'ladi. Bu esa halichaga avtobus yo'nalishlarining puxta rejasi ishlab chiqilmaganiga ishora beradi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



IMTIYOZDAN UNUMLI FOYDALANAYOTGAN USTA

Oramizdagi odamlar

Izlagan imkon topar deganlari bor gap. Kishi astoydil istasa, har qanday ishini eplashi aniq. Tolibjon ilk bor ustachilikka qo'lganida hali ustoz ko'rmagandi. Odatdagi kunlarning birida uyidagi eski televizor yaxshi ko'rsatmay qoldi. U paytlar usta topish ancha mushkul edi. Topilganda ham kamida hafta-o'n kun deganda tuzatib berishi mumkin. Maktabning yuqori sinfga o'tgan yosh yigit uchun asosiy ovunchoq shu televizor. Bu bo'lmasa kun ancha zerikarli o'tishi aniq.

Ikki kun televizorsiz ancha zerikarli o'tdi. Nima qilishni bilmasdi. Uyidagilar erta ketib, kech kelgani bois, ularga oynai jahonning qadri unchalik bilinmasdi. O'zi ustaga olib boray desa, birinchi guruh nogironi. Yaxshisi, o'zi tuzatishga harakat qilib ko'radi. Axir maktabda fizikani yaxshi o'qiydi-ku. Tavakkal qilib qo'lga ayrim jihozlarni olgancha ishga kirishdi. O'sha paytdagi o'ziga yarasha katta ekranli televizorni bir amallab orqa tarafidan ochib, turli hajmdagi chiroqlarini birma-bir olib, qayta qo'yib chiqdi. Simlarini tortib-tortib qo'ydi. Shu holicha elektr tokiga ulab ko'rdi. Chiroqlardan biri yonmadi. Asosiy sabab shu chiroq ekanini taxmin qildi. O'sha chiroqni olib, ukasiga aynan shu chiroqning ishlaydiganini ustaxonadan olib kelishni tayinladi. Kechga yaqin izlab topilgan

chiroq Tolibjonga olib kelindi. U kuygan chiroq o'miga yangisini qo'yib, televizorni tokka uladi. Bir oz o'tib, ekranda tasvirlar paydo bo'ladi. Buni ko'rgan yosh yigitning ko'ngli tog'dek ko'tarildi. Uyidagilar esa bundan hayratda edi. Ular buni aynan Tolibjon tuzatganiga qoyil qoldi. Bu esa unga yanada g'urur baxsh etdi. Shundan so'ng asta-sekin radiotexnikani tuzatishni yaxshiroq o'rgana boshladi.

Endi yosh usta bekor o'tirmaydigan bo'ladi. Qo'ni-qo'shni, yaqin atrofdagilarga yordami tegishi bilan birga daromad ham topardi. O'ziga mos ish topgani uni yanada itilishga undadi. Ko'proq sohaga oid adabiyotlar topib o'qiydigan, mutaxassislar maslahatini oldi. Bilmaganlarini tajribali ustalardan so'rab o'rganishga odatlandi. Maktabni tugatgach,

Bugun nogironligi bo'lgan uch kishining bandligi ta'minlangan bo'lsa, keyinchalik o'n kishiga yetkazmoqchimiz. Qancha mehnat qilaman desangiz, imkoniyatlar eshigi shunchalik ochilmoqda. Ilgari ishxonaga kelib ketishga qiynalardim. "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazidan elektron yuritmalni nogironlar aravachasi sovg'a qilishdi. Bundan tashqari, modulli son protezi va murakkab poyabzal hamda qo'lliqta'yoq berishgani yaxshi bo'ladi. Bu men uchun yanada rag'bat.

Tolibjon radio-elektronika sozlash yo'nalishida faoliyatini kengaytirish maqsadida yaqinda "Qarshi hamkor inventor" oilaviy korxonasiga asos soldi. Buning natijasida 8 kishining bandligi ta'minlandi. Shu paytga qadar biror korxona eshigini taqillatib, yordam so'rab bormagan usta o'z mehnati bilan ro'zg'orini tebratishni yaxshi ko'radi. Hunari ortidan yaxshi daromad topib, farzandlarini voyaga yetkazmoqda. Ayni paytda to'ng'ich farzandi tibbiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasasida tahsil olmoqda. Ikkinchisi Prezident maktabida o'qishni davom ettirmoqda. Quvonchlisi, 2022-yilda T.Ibodov "Jasorat" medali bilan taqdirlangan. Bu yuksak mukofot uni yangi g'oyalari sari yetaklamokda.

Yana bir gap. Tolibjon berilgan imtiyozlardan foydalanib, hozir Qarshi davlat texnika universitetida davlat granti asosida ta'lim olmoqda. Oliy o'quv yurtida tahsil olishi sohadagi bilimi yanada oshishiga sabab bo'ladi. Xususan, ayni paytda quyoshi panellari uskunalarini ta'mirlashni ham yo'lga qo'ydi. Bu esa tarmog'ini yanada kengaytirib, qo'shimcha ish o'rnlari ochish imkonini beradi.

Akbar RAHMONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

JARAYON

YANGI O'ZBEKISTON

“TASHABBUSLI BUDJET”:

birinchi mavsumda Surxondaryoda 170 ta taklif g'olib bo'lgan

OpenBudget

O'zbekiston Respublikasi

"Ochiq Budget" Portali



Xususan, Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumanida joriy yil "Tashabbusli budget"ning birinchi mavsumi doirasida jami 10 ta taklif g'oliblikni qo'lga kiritgan, buning samarasida yo'l, elektr tarmoqlari tortish va ichimlik suv ta'minotini yaxshilash borasida sezilarli ishlar bajarildi.

Tumandagi Qorliq mahallasida "Tashabbusli budget" loyihasi doirasida ko'p yillardan buyon o'z yechimini kutib turgan muammolar ijobiy hal etildi.

Mahalla ahlining hamjihatligi natijasida 2023-2025-yillarda yo'l, suv, elektr energiyasi, ijtimoiy soha obyektlarini qurish kabi yo'nalishlar bo'yicha jami 6 ta loyiha uchun 7 milliard 700 million so'mdan ziyod mablag' yo'naltirilgan. Mazkur sarmoyaning 1 milliard 200 million so'mi hududdagi 64-umumta'lim maktabini rekonstruksiya qilish, kerakli jihozlar bilan ta'minlash uchun ishlatilgan.

— "Tashabbusli budget" aholining birligi degani. Bir yoqadan bosh chiqarib, mavjud muammolar yechimi bo'yicha davlatga tashabbus berish va ko'maklashish degani, — deydi maktab direktori Sherzod Xudoyqulov. — Maktabimiz o'tgan asrda qurilgan. Tashabbusimiz ortidan ta'lim muassasasiga mablag' yo'naltirilib, zamonaviy ko'rinish oldi.

Qorliq mahallasida bir vaqtlar qishda loy, yozda chang bo'lib yotadigan 23,8 kilometr ichki yo'l bugun to'liq asfalt qilindi.

— Haqiqatan, mahalla obodligi — yurt obodligi degan qarash bugun hayotimizga chuqur singib boryapti. "Tashabbusli budget" tufayli eng chekka manzillar, jumladan, mahallamiz ham obodlik sari yuz tutmoqda, — deydi "Qorliq" MFY raisi Shavkat Zokirov. — "Tashabbusli budget" loyihasi aholini bir maqsad yo'lida birlashtirib, bamaslahat ish qilishga undamoqda.

Loyiha ko'magi bilan Qorliq mahallasidagi 56-oilaviy poliklinika filiali ham qaytadan qurilib, ilgari bo'lmagan tibbiy jihozlar bilan ta'minlandi.

— Avvallari past-qamgina bir xonali binoda tibbiyot xodimlari haming-qadar sharoitda ishlardi. Bemorlarning muammolariga yechim topolmasligimizdan ko'nglimiz og'irdi. Hozirgi sharoit shaharlardagi poliklinikalardan qolishmaydi. Zamonaviy bino va tibbiy jihozlar ishimizni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga sababchi bo'lyapti. Sharoit esa bizni yanada fidoyilik bilan ishlashga undaydi, — deydi shifokor Jahongir Meliqulov.

Oltinsoy tumani Xo'jasoat mahallasi ham "Obod xonadon — obod ko'cha — obod mahalla" mezonlari asosida yangicha qiyofa kasb etdi. 3360 dan ortiq kishi istiqomat qiluvchi mazkur mahallada qisqa vaqt ichida 270 million so'm evaziga yangi mahalla binosi qad rostladi.

Hududdagi 2,2 kilometr ko'chaga shag'al yotqizildi, aholini uzluksiz ichimlik suv bilan ta'minlash maqsadida 320 metr quvur tortildi.

Tumanda amalga oshirilayotgan qurilish-bunyodkorlik ishlari Marmin mahallasini ham chetlab o'tmadi. Hozir mahalladagi 56-oilaviy poliklinika binosi tubdan qayta ta'mirlanmoqda. Bu shifo maskani ishga tushishi bilan qariyb 20 ming aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifati yaxshilanadi. Bundan tashqari, aholi uchun qulay infratuzilma yaratish maqsadida mahallada 2200 metr ichimlik suv tarmog'i yangidan tortilib, 2,5 kilometr ichki ko'chalarga asfalt yotqizildi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilda "Tashabbusli budget"ning birinchi mavsumi doirasida Surxondaryo viloyatida jami 170 ta taklif g'oliblikni qo'lga kiritgan. Umumta'lim maktablarini ta'mirlash uchun 36 ta loyiha, tibbiyot muassasalari ta'miri va jihozlar xaridi uchun 29 ta, ichki yo'llarni asfaltlash bo'yicha 72 ta, ichimlik suv ta'minotini yaxshilashga qaratilgan 3 ta va boshqa sohalar bo'yicha 30 ta loyiha moliyalashtirilgan.

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

“Oldimizga “Avtomobilsiz kun” loyihasini ijtimoiy odatga aylantirish maqsadini qo'ygan ekanmiz, uning targ'iboti ham shunga monand bo'lishi lozim. Zero, “Avtomobilsiz kun” jamoatchilik loyihasida ham, yuqorida ta'kidlaganimizdek, vazirlik va idoralar, hududiy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbar va mas'ul xodimlari ish joyiga jamoat transportida kelib, namuna ko'rsatib borishi belgilangan. Biroq bu tartibga qanchalik amal qilinyapti? Umid qilamizki, loyiha dastlabki davrida ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali uni faol targ'ib qila boshlagan el nazaridagi kishilar bu ezgu odatlarini yana davom ettiradi.

Targ'ibot qilishning yana bir samarali usuli — reklama quvvatlaridan oqilona foydalanish. E'tibor qilganmisiz, har kuni qatnaydigan yo'limizdagi katta bannerga qaysidir san'atkorning konsert dasturi haqida e'lon bo'ladi. Biz uni har kuni ko'raverganimizdan beixtiyor konsert o'tkaziladigan sana yod bo'lib ketadi. Lekin nega odam gavjum ko'chalarda "Har oyingning oxirgi chorshanbasi — "Avtomobilsiz kun" mazmunidagi e'longa ko'zimiz tushmaydi? Modomiki, shu kabi bannerlar shaharning gavjum yerlariga o'rnatilsa, minglab yurtdoshlarimizga uning muddati yod bo'lib ketgan bo'larmidi?!

Mutasaddilar tashabbus ko'rsatsa — ayni muddao

“Avtomobilsiz kun” borasida jahon tajribasini o'rganar ekanman, ayrim davlatlarda aynan shu kuni YPX xodimlari tomonidan akasariyat ko'chalar yopilib, piyodalar, velosiped va skuterlarda harakatlanuvchilarga moslashtirish amaliyoti borligiga guvoh bo'ldim. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad shaharda avtomobilsiz ham qulay harakatlanish mumkinligini aholiga his qildirish hisoblanarkan. Bizdagi mas'ul idoralar ham bu haqida o'ylab ko'rishsa, nur ustiga nur bo'lar edi.

Darhaqiqat, “Avtomobilsiz kun” — jahon tajribasida azaldan bor bo'lgan hamda o'zini oqlagan ijtimoiy loyihadir. Mutaxassislar ana shu bir kunda atmosferaga qanchalik foyda bo'lishini ham hisoblab chiqqan. Mamlakatimizda bu loyiha nisbatan yosh, ammo uning ommalashishi siziz bizga, butun jamiyatga koni foyda. Shunday ekan, nafsiz loyihalar sirasiga kirib, unutilmasidan avval uni ijtimoiy odatimizga aylantirib olaylik. Bundan ham o'zimiz, ham kelajak avlod minnatdor bo'lishiga shubha yo'q.

Jonibek ALIJONOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Xalqaro festival



“Markaz 365 mingga yaqin kitob fondiga ega bo‘lib, bir vaqtning o‘zida 300 dan ziyod o‘quvchiga xizmat ko‘rsata oladi. Eng nodir kitoblar alohida talablar asosida saqlanishi va mutolaa qilinishi uchun ham imkoniyat yetarli. Shuningdek, xorijiy tillarda chop etilgan adabiyotlarni o‘qish uchun alohida 60 o‘rinli zal, ona va bola xonasi mavjud.

DUNYO KITOBXONLARI FARG‘ONADA JAMLANDI

Boshlanishi 1-betda

Inson hayoti, buguni va ertasi ko‘p jihatdan moddiy ta‘minotga bog‘liq. Kitob esa ma‘naviy mulk mahsuli sifatida qadrlanadi. Uzoqqa bormaylik, bundan 15-20 yil avval qorin to‘ydirish, tirikchilik uchun yelib-yugurish birinchi masalaga aylanib qolgandi. Xalqimizda “Bo‘sh qop tik turmaydi” degan naql bor. Bu — hayot haqiqati. Ishdan, bozordan uyga qaytgan ota-onalarimiz dilbandlariga yegulik olib kelish, dasturxon tashvishi bilan ovora bo‘lib qolgandi. Chunki ularning topgan-tutgani ana shu moddiy ne‘matlargagina yetgan, xolos. O‘sha kezlari ma‘naviy ta‘minotdan ko‘ra, moddiy ta‘minot, ya‘ni qorin to‘ydirish tashvishi birlamchi masalaga aylanib qolgandi...

Bugun buboradagi ish, tizim, qarashlar, fikrlar o‘zgardi. Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi yo‘lidagi hayotbaxsh islohotlar aholini ish bilan ta‘minlash, farovonligini oshirish, bozorlarimiz, dasturxonlarimiz, omborlarimiz to‘kinligini ta‘minlash imkoniyatini berdi. Bugun ishdan uyga qaytgan ota-onalar farzand va nabiralarning tafakkurini, dunyoqarashini boyitish, bilimli, hunarli qilib kamolga yetkazish harakatida.

Bu masalada kitobdan yaxshi ishonchli manba, do‘st yo‘q, albatta. Joylarda kitobxonlikni ommalashtirish, kitobxon yoshlarni aniqlash, qo‘llab-quvvatlash uchun turli ko‘rik-tanlov, adabiy-badiiy kecha, yozuvchi-shoirlar, noshirlar bilan uchrashuvlar uyushtirishga e‘tibor oshdi. Shu kunga qadar kitobxonlik yo‘nalishida o‘tkazilgan nufuzli

ko‘rik-tanlovlarda farg‘onalik 3 yosh eng yaxshi kitobxonlar safidan joy olgani ham kitob va kitobxonlikka munosabatni ko‘rsatib turibdi. Shu mavzuda so‘z ketganda, ko‘plab hamyurtlarimiz tashabbusi bilan mahalla, xonadonlarda mo‘jaz kutubxonalar faoliyati yo‘lga qo‘yilayotgani, kitobning hayotbaxsh, ezigulikka xizmat qiluvchi nuri har bir oilaga kirib borayotganini ta‘kidlash joiz. Ayni paytda Farg‘ona viloyatida 13 ta oilaviy kutubxona faoliyat yuritaypti. Bu oddiy raqam bo‘lib ko‘rinishi mumkin. Ammo uning ortida qanchadan qancha mehnat va izlanish, tashabbuskorlik, fidoyilik mujassamligini ilg‘ash qiyin emas. Kelinning sep-sarposiga kitob ham qo‘shayotgan kitobsevar quda-andalar kundan kun ko‘payib borayotgani ham bor gap.

Rishton tumanidagi “Nosgar” mahalla fuqarolar yig‘inida yashovchi faxriy muallim Husanboy Ergashev o‘z xonadonida kutubxona ochganiga ko‘p bo‘lgani yo‘q. Oddiy, fayzli kutubxonaga kitob mutolaa qilish istagida kelayotgan yoshlar ko‘p. Bu yerda 12 mingdan ortiq nodir va noyob kitoblar, gazeta va jurnallar to‘plami jamlangan.

Yoshligidan kitob bilan oshno bo‘lgan, so‘zga chechan ustoz har bir gap, muloqotida “jon-jon” iborasini qo‘shib ishlagani bois, el orasida “Jon-jon domla” degan ta‘rif bilan mashhur bo‘lgan. Ustozning bu boradagi izlanishlari besamar ketgani yo‘q, albatta.

— Insonga kitobdan yaxshi do‘st, suyanchiq, dildash yo‘q, — deydi bu yil 85 bahorni qarshi olgan Husanboy ota. — Ijtimoiy



Muslim TO‘LONOV olgan suratlari

tarmoq, telefon yoshlarga mukammal bilim bera olmaydi. Shu bois, yig‘it-qizlar qalbidagi kitobga mehr uyg‘otish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirib borishni asosiy maqsad qilib olganman. Mahalladagi har bir oila, o‘g‘il-qiz kutubxonamizga a‘zo bo‘lgan. Bu yerda har oyda bir yoki ikki marotaba ma‘naviy-ma‘rifiy tadbir, uchrashuvlar o‘tkazish an‘ana aylangan. Yoshlarni kitobxonlik bilan birga, hunar o‘rganish, mehnat qilishga undaymiz.

Ergash ota Sanginov nomidagi oilaviy kutubxona javonidan o‘rin olgan noyob tarixiy asarlar, jahon va o‘zbek adabiyoti durdonalari, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalardan foydalanish uchun o‘ziga xos shart-sharoit yaratilgan. Kutubxona huzurida Rishton tumani tarixi haqida ma‘lumot beruvchi kichik muzey ham tashkil etilgan. Unda rishtonlik, xususan, mahalladan yetishib chiqqan mashhur kulollarining noyob san‘at asarlari joy olgan.

— Mahallamizdagi 100 dan ortiq yig‘it-qizning nufuzli oliy ta‘lim muassasalarida o‘qiyotganida bu qutlug‘ maskanning o‘ziga xos hisssasi bor, — deydi “Nosgar” MFYdagi yoshlar yetakchisi Uyg‘un Abduhamidov. — Ular maktabdan bo‘sh vaqtlarida mana shu kutubxonada bilimni mustahkamlab, bilmaganlarini o‘rganadi. Bu o‘rinda ustoz Husanboy Ergashevning xizmati alohida e‘tiborga molik. Chunki bu kutubxona mahalla yoshlari uchun hamisha ochiq. Keyingi 3 yilda mahalla yoshlari o‘rtasida birotta ham huquqbuzarlik yoki jinoyatchilik bilan bog‘liq salbiy holat qayd etilmadi. Hozir mahallamiz “yashil hudud” toifasiga kiritilgan.

So‘zimizni bejiz kutubxona, kitob mutolaa va kitobxonlik madaniyati bilan boshlamadik. Farg‘ona viloyatida “Xalqaro kitobxonlik festivali” hamda “Central Asia—2025: fan, ta‘lim, madaniyat va biznesda internet va axborot-kutubxona resurslari” mavzusida XVIII xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tmoqda. Mazkur xalqaro tadbir Markaziy Osiyo mamlakatlari ilmiy-texnikaviy va axborot yo‘nalishlaridagi innovatsiyalarni muhokama qilish, ta‘lim va madaniyat sohalaridagi axborot resurslarini kengaytirish, O‘zbekistonning xalqaro ilmiy hamjamiyatdagi o‘mini yanada mustahkamlash, Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida ilmiy-texnikaviy hamkorlikni rivojlantirishni maqsad qilgan.

Bunday nufuzli tadbirni o‘tkazishga Farg‘ona viloyati tanlab olingan bejiz emas. Azaldan kitobsevar, adabiyot ixlosmandlari, iste’dodli ijodkorlar yurti bo‘lib kelgan ko‘hna maskanda joriy yil “Kitobxonlik yili” deb e‘lon qilindi. O‘tgan qisqa muddatda bu yo‘nalishda ko‘plab yangi loyihalar, tashabbuslar amalga oshirildi. Xususan, Ahmad Farg‘oniy nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazi bilan hamkorlikda “Davlat xizmatchisi kutubxonada bir kun” loyihasi doirasida shu kungacha turli tashkilot-muassasalarning 100 mingdan ortiq xodimlari kutubxona a‘zoligiga qabul qilindi. Tuman va shaharlarda o‘ndan ziyod shaxsiy kutubxona ochildi. Kitobxonlik va axborot-kutubxona rivoji yo‘lidagi munosib hisssasi hamda samarali xizmatlari uchun Farg‘ona viloyati hokimi Xayrullo Bozorov “Axborot-kutubxona a‘lochisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.

— Viloyatimiz mezbonlik qilayotgan xalqaro anjuman va kitobxonlik festivaliga katta tayyorgarlik ko‘rildi, — deydi Ahmad Farg‘oniy nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazi direktori Husniyaxon Shermatova. — Markazimiz qariyb 14 milliard so‘m evaziga mukammal ta‘mirlanib, zamonaviy ko‘rinishga keltirildi. Bu yerda kitobxonlar uchun barcha qulaylik muhayyo etilgan, jihozlar yangilangan. Kitob fondi yanada boyitilib, kutubxonachilikning so‘nggi yutuqlari asosida an‘anaviy, virtual hamda elektron kutubxona xizmatlari ko‘rsatish mumkin. Mutolaa zallari, muhokama va kompyuter xonalari, mediastudiyalari, video hamda tezkor Wi-Fi tarmoqlari mavjud. “Book cafe”, 5 ta o‘quv zali, ilmiy tadqiqot, bolalar va o‘smirlarga xizmat ko‘rsatish, nodir fotosuratlar bo‘limlarida jahon andazalari darajasida sharoit yaratilgan. Bunday qulayliklar tufayli keyingi yillarda kutubxonamiz a‘zolari soni qariyb to‘rt barobar ko‘paydi.

Markaz 365 mingga yaqin kitob fondiga ega bo‘lib, bir vaqtning o‘zida 300 dan ziyod o‘quvchiga xizmat ko‘rsata oladi. Eng nodir kitoblar alohida talablar asosida saqlanishi va mutolaa qilinishi uchun ham imkoniyat yetarli. Shuningdek, xorijiy tillarda chop etilgan adabiyotlarni o‘qish uchun alohida 60 o‘rinli zal, ona va bola xonasi mavjud.

Keng ko‘lamli ezgu ishlar nafaqat mamlakatimiz shahar va tumanlari, balki xalqaro maydonlarda ham ommalashmoqda. Xalqaro kitobxonlik festivali va konferensiyasida 11 davlatdan soha mutaxassislari, ekspertlar, kitob



Kamolot pillapoyalari

Zilolaning bolaligi Surxondaryoning chekka qishloqlaridan birida o‘tdi. Onasi har hafta qishloq bozoriga chiqib, uy-ro‘zg‘or buyumlari sotar, ertasingiz daromadida esa dehqonchilikdan edi. Oila a‘zolari mavsumiy ishlarda ishlab, bahorda ko‘chat ekish, yozda meva terish, kuzda esa hosil yig‘ish bilan band bo‘lardi.

U o‘zini katta auditoriyalarda, kitoblar qurshovida tasavvur qilardi. Professorlarning darslari, keng kutubxonalar muhiti, universitet hayoti — bular uning xayollaridan hech ko‘tarilmasdi. Lekin u bilar edi: universitetda o‘qish faqat istak bilan emas, imkoniyat bilan ham bog‘liq. Onasi bilan dildan suhbatlashgan paytlari maqsadlari haqida gapirardiuy “Ona, o‘qishga kirsam, moddiy tomoni nima bo‘ladi?” degan savolni aytishga yuragi betlamasdi. Shunday bo‘lsa-da, u har kuni orzulari tomon intilaverdi: darslarda faol qatnashar, bo‘sh vaqtlarida bepul onlayn kurslarga yozilar, mustaqil ravishda insho yozib, keng fikrlashga harakat qilardi.

Bir kuni maktabida viloyatdagi oliy ta‘lim muassasalari vakillari bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Bu Zilola uchun unutilmas ko‘p‘ldi. U davlat grantlari, ijtimoiy ehtiyojmand oilalar uchun ajratiladigan kvotalar, talabalar yotoqxonalar imtiyozlari va stipendiyalar haqida ilk bor shulardan eshitdi. Ustozlaridan maslahat so‘radi, hujjat topshirish tartibini o‘rganishga kirishdi.

O‘tgan yili Zilola maktabni a‘lo baholar bilan tamomlab, mahalla orqali tavsiyanoma oldi va davlat tomonidan ehtiyojmand oilalarning qizlari uchun ajratilgan qo‘shimcha kvota asosida o‘qishga qabul qilindi. Bugun u pedagogika yo‘nalishida talaba. Undagi iste‘dod

va salohiyatni sezgan ustozlari Zilolaning ilm yo‘lida ketishidan umidvor. Kun kelib Zilola nafaqat ziyoli ayol, balki yurtimiz ilm-faniga hissa qo‘shadigan olim, professor bo‘lib yetishsa, ajabmas. O‘ylab qolaman, agar shu imkoniyatlar bo‘lmaganda, bugun Zilolaning taqdiri butunlay boshqacha bo‘larmidi...

Insoniyat tamaddunida har qaysi jamiyatning madaniy darajasi va ma‘naviy barkamolligi ayollarga munosabat bilan belgilangan. Mamlakatimizdagi bugungi islohotlar zamirida ham xotin-qizlar ta‘limi va jamiyatdagi o‘mini yuksaltirishga bo‘lgan yuksak e‘tibor mujassam, desam adashmayman. Prezidentimizning bu boradagi tashabbuslari nafaqat raqamlar va qarorlar darajasida, balki har bir oilaning, har bir yosh qizning hayotida seziladigan katta o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Qiz bolani o‘qitak, butun jamiyatni o‘qitgan bo‘lamiz degan purlikmat so‘zlar davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanmoqda.

Yurtimizda xotin-qizlarning ilm-fan, ta‘lim, kasb-hunar, oilaviy va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi uchun keng imkoniyatlar yaratilayotir. Ular bilimdon, zamonaviy dunyoqarashga ega mutaxassis sifatida kamol topishi, sog‘lom va mustahkam oila qurishi uchun zarur shart-sharoitlar ta‘minlanmoqda. Bu o‘zgarishlar quruq bayonot emas, balki aniq huquqiy asos va hayotiy natijalarga



tayangan, dunyoning ko‘plab mamlakatlarida uchramaydigan tajriba sifatida namoyon bo‘layotir. Shaxsan o‘zim qaysi mamlakatda bizdagi kabi oliy ta‘limda o‘qiyotgan xotin-qizlarning shartnoma to‘lovlari davlat tomonidan to‘liq qoplab berilishiga qiziqdim. Aynan yurtimizda magistratura to‘lov-shartnoma asosida qabul qilingan talaba qizlarning ta‘lim xarajatlari davlat byudjetidan qoplab berilmoqda. Bu esa iqtisodiy sabablar tufayli magistratura o‘qiy olmagani ko‘plab qizlar uchun juda katta imkoniyatdir.

Xotin-qizlarga ta‘lim krediti berish tartibi ham tubdan takomillashdi. Bugun ular 7 yil muddatga foizsiz kredit olish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu kreditni faqat o‘qishni tugatgach va o‘zlariga mustahkam iqtisodiy asos topgach to‘lashadi. Ushbu islohot nafaqat moliyaviy yengillik yaratadi, balki xotin-qizlarni ilm olishga yanada ilhomlantiradi. Bu yondashuv, albatta, yosh avlodga o‘z ta‘limini yakunlab, jamiyatga foydali mutaxassis sifatida qaytib kelishiga ishonchni oshiradi. Bunday tizimning hayotga tatbiqi jamiyatda gender

tenglikni yanada mustahkamlashga, xotin-qizlarga o‘zini rivojlantirishi yo‘lida yanada ko‘proq imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi.

Ilm-fan sari dadil qadam qo‘yayotgan ayollar uchun yana bir imkoniyat doktorantura ajratilgan maqsadli kvotalar bo‘ldi. Har yili yuzlab iqtidorli xotin-qizlarga ilmiy tadqiqot olib borish uchun maxsus kvotalar ajratilishi, ularning chel elda stajirovka o‘tashiga yo‘l ochilishi xalqaro miqyosda tengi yo‘q tajribadir. So‘nggi yetti yilda 5247 ayol ilmiy darajalar olgan. “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida ta‘lim olgan yoshlarning 47 foizini qizlar tashkil etgan.

Ilm-fan va ta‘lim, xususan, oliy ta‘lim sohasi islohot etilib, jahon standartlariga moslashtirilayotgani sababli xotin-qizlar bu yo‘nalishda ham katta natijalarga erishmoqda. Hozirgi kunda ilm-fan sohasida jami 5 mingga yaqin olim ayol faoliyat ko‘rsatmoqda. Avvallari bu ko‘rsatkich anchayin past edi. Oliygo‘hlarda 14 mingdan ziyod opa-singlimiz pedagogika va ilmiy tadqiqot yo‘nalishida ish olib borayotgani ularning intellektual salohiyati naqadar balandligidan dalolat beradi. Shaxsan o‘zim ham shu imkoniyatlardan foydalangan holda ilmiy tadqiqot ishini muvaffaqiyatli himoya qildim. Turli sun‘iy to‘siqlar bartaraf

etilganidan so‘ng yurtimizda olim ayollar safi kengaygani va ular qatorida mening ham borligim cheksiz faxrdir.

Har bir ayolning o‘qishga, ilm olishga, orzusiga intilishga haqqi bor. Davlatimiz bu hayotiy haqiqatni siyosiy prinsip darajasiga ko‘tardi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, so‘nggi yillarda oliy ta‘limda xotin-qizlar ulushi 52 foizdan oshgan. Ammo eng muhim ko‘rsatkich har bir raqam ortida turgan shaxs taqdiri, orzu va fidokorlikdir. Ta‘lim orqali ayollar jamiyatning faol qatlamiga aylandi. Ularning ovozi eshitilmoqda, fikri inobatga olinmoqda. O‘zbek ayoli endi faqat oilaning emas, balki jamiyatning, davlatning barqarorligi uchun mas‘uliyatli, bilimli, faol kuchga aylanmoqda. Ta‘lim orqali ochilgan eshiklar taraqqiyot yo‘lida yondirilgan mash‘aldir. Bu kabi misollarni uzoq davom ettirish mumkin. Muhimi, bunday ezgu ishlar orqali qancha-qancha xonadonlarga quvonch va shodlik kirmoqda, minglab ayollarning ruhi ko‘tarilib, ertangi kunga ishonchi mustahkamlanmoqda.

Bilimli, ma‘rifatli ayol nafaqat oila, balki jamiyat taraqqiyotini olg‘a boshlovchi kuch. Bugun yurtimizda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ilm-ma‘rifatli qilish, zamonaviy hunarlarni o‘rgatish, bandligini ta‘minlash borasidagi islohotlar zamirida ham shu haqiqat ifodasi yotibdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ma’suma OBIDJONOVA,
filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



SO‘ZLARI SO‘Z EMAS, bir kaft cho‘g‘ edi



Farog‘at XUDOYQULOVA,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
a‘zosi, shoira

“Tor qafasni sindirganman”

O‘zbek milliy adabiyoti yuksalishiga munosib hissa qo‘shgan buyuk iste’dod sohibasi, jamoat arbobi, O‘zbekiston xalq shoiri Halima Xudoyberdiyeva millatparvar ijodkor edi. U milliy o‘zlik tushunchasini asrash yo‘lida yurtdoshlarimiz qalbiga ijtimoiy yangilanish nafasini olib kirdi. Shoiraning so‘zlari so‘z emas, bir kaft cho‘g‘ edi. Cho‘g‘ni yarim asrdan ko‘p muddat ushlab turish — jasorat.

Halima opa xalqimiz yuragidan joy olgan mustahkam irodali, kuchli, jasratli millat fidoyilari — Nodirabegim, Uvaysiy, Zebunniso, Zulfiyaxonim, Saida Zunnunova kabi ko‘plab shoirlar safida turib, o‘ziga xos yangi ijodiy tamoyillar bilan ko‘z o‘ngimizda Turon onalarining dovyurak va donishmand siyrati hamda suratini gavdalandirdi. Vatani, yurtdoshlari, farzandlari, shogirdlari, qadrdon, sevimli insonlari va muxlislari qalbida ba‘zan oydek botib, ba‘zan oftobdek charaqlab yashab o‘tdi. Qalbmizda, tafakkurimizda abadiy qo‘nim topdi.

*Tor qafasni sindirganman,
Ko‘kda ko‘ksim tilaman.
Men joyimdan qo‘zg‘alamam,
Erkday ko‘tarilaman.*

Turon onalarining shahdu shiddati bosh-qacha bo‘lishi mumkin emas. Shoira yozgan haqiqatlarni o‘qimoqning o‘zi haqiqatni his qilmoq edi. O‘qiganlarining his qilmoq esa ko‘p narsani oydinlashtiradi. Tor qafasni sindirmoq, ko‘ksini tilib bo‘lsa ham ko‘kka uchmoq, illo tomlarida millatining issiq va toza qonini sovitmay, hazrati so‘zning yuragi bilan bog‘lamoq — asl shoirларning qismati. Vatan, millat istiqboli yo‘lida uyg‘ o‘q yashagan ruhning yuksalishi xuddi mana shunday kechadi, nazarimda.

Halima opa bilan yaqindan tanishib, suhbatlashgan damlarimdayoq har satrida eldoshlarining g‘aflat iskanjasiga tushib qolishidan iztirob chekkan, oromini yo‘qotgan, lahzalalar mahzanida asriy dardlarni ko‘targan, yonmasdan yasholmaydigan shoira hayotining, ijodining mazmun-mohiyati uyg‘oqlik ekanini anglaganman.

Ishonch va mehr

Talabalik yillarimda jurnalistika fakulteti dekani, taniqli jurnalist ustozimiz Saydi Umirov alohida e‘tibor bilan Abdulla Oripov, Halima Xudoyberdiyeva, Muhammad Yusuf va xalqimizning boshqa sevimli shoirilari bilan meni uchrashtirib, tanishtirib qo‘ydi. Chunki Saydi aka shogirdlari katta shoirlardan doim maslahat, saboq olib turishini xohlardi. O‘sha paytda Halima opa “Saodat” jurnalida ishlardi. Shu-shu opaning ijodiy uchrashuvlarida, keyinchalik “Sanam” jurnalida ishlagan vaqtda yoniga borib suhbatlar qurdim.

2000-yilda Halima opaning “Saylanma” she‘rlar to‘plami va 2006-yilda “Yo‘ldadirman” nomli kitobi “Sharq” nashriyotida 5000 nusxada chop etildi. Bu kitoblarning har biridan 2 donadan sotib olib, bittasini Navbahor ismli qadrdon opamga sovg‘a qildim.

Navbahor opaga “Halima opa bilan sizni tanishtiraman” deb yurardim. Bir kuni opa bilan shoirani ko‘rgani uyiga bordik. Ertalab soat 9:30 lar edi. Kattalar ishga, nevaralar bog‘chaga ketgan bo‘lsa kerak, uyda Halima opaning o‘zi ekan. Ancha payt suhbatlashib o‘tirdik. Kitoblarimizga dastxat yozdirib oldik. Mana, “Buyuk qushlar” kitobiga yozgan dil izhori:

*Sevimli Farog‘atbegimga!
She‘riyatning haqiqiy fanati, malikasini
“Buyuk qushlar” hamisha qurshab,
yorug‘likka, balandlikka ko‘tarsin! Sizning
ruhiyatingizni yaxshi ko‘rdim!”.*
Ehtirom bilan,
O‘zbekiston xalq shoiri Halima Xudoyberdiyeva.

Har gapida Yassaviy, Rumi, Navoiy, Bobur, Boborahim Mashrab, Nodirabegim, Uvaysiy kabi ulug‘larimizdan hikmatlar keltiradigan Halima opa har bir kitobiga o‘lguningcha esingdan chiqmaydigan izhor yozar edi. Ularning har biri ijodimizga, hayotimizga berilgan yangi oq yo‘l bo‘lardi.

Shunday kunlarda men ham yangi kitobimni chiqarish taraddudida yurganimni aytdim va bir og‘iz so‘z yozib berishini so‘radim. “Albatta, yozib beraman. “Oq xatlar”, “Oshiq bo‘lgan kunlaring” she‘rlaringizni tez-tez yurakdan o‘tkazib turaman. “Qo‘shilsam maylimi, karvoningizga?” she‘ringiz esa bu alohida suhbat men uchun”, dedi. Bu ishonch va mehr men uchun juda yuksak, kutilmagan e‘tirof bo‘lgan.

“Qo‘shilsam maylimi, karvoningizga?..”

2007-yil aprelida O‘zbekiston xalq shoiri Oydin Hojiyevaning “Saodat” jurnalidagi

“Halima opaga mehrini O‘zbekiston xalq shoiri Oydin Hojiyeva ham o‘ziga xos tarzda “Bag‘ishlov” she‘rida izhor qilgan. Afsuski, bu she‘rni opaning o‘zi o‘qimagan. Bu she‘rni takror-takror o‘qir ekanman, shoiraning izlarida haqiqatan “Erk gullari qulf urayotgani”ga, “Iymonida erk-shonlar hamon uyg‘oq” ekaniga ishonch hosil qilaman. Momalarimizdan meros chanqovuz nolasi kabi ko‘ksimda simillagan bu satrlar betinim urayotgan yuragimga taskin beradi, faxrga to‘ldiradi.

xonasiga bir quchoq atirgul ko‘tarib kirib bordim.

O‘shanda Oydin opa Halima opa haqida go‘zal ta‘riflar keltirib, “Jurnalning may oyi sonida chop etishga Halimaxonning she‘rlarini tayyorlayapmiz”, dedi.

— Halima opaning 60 yoshiga kutilmagan sovg‘a qilyapsizlarmi? — deb so‘radim.

— Albatta, oltmish — qutlug‘ yosh. Halimadek katta shoirlar 60 yoshda katta she‘riyat karvonining egasi bo‘ladi, — dedi ishonch bilan Oydin opa.

Halima opaga bag‘ishlab tabrik she‘r yozishim kerak deb xayolimdan o‘tkazib turgan paytimda Oydin opaning bu so‘zlari menga ilhom berdi. Yalt etib miyanga nur bergan satrlardan bir lahzaada bag‘ishlov she‘r dunyoga keldi:

*Yillar shahdingizga sololmasin suq,
Tegib o‘tolmasin ko‘ksingizga o‘q,
Yuragimdan boshqa og‘ir yukim yo‘q,
Qo‘shilsam maylimi, karvoningizga?
Poyingizda tojdan oq kaplar bo‘lib,
Zaxirada torqon alp askar bo‘lib,
Oqsaroydan kelgan xushxabar bo‘lib,
Qo‘shilsam maylimi, karvoningizga?
Bahoringiz kelmish barqu qut bilan,
Bag‘ringiz but bo‘lsin, bag‘ri but bilan,
Siz kabi o‘chirsam o‘tni o‘t bilan,
Qo‘shilsam maylimi, karvoningizga?
Yuragimdan boshqa og‘ir yukim yo‘q,
Qo‘shilsam maylimi, karvoningizga?..*

Oydin opaning ta‘riflari ta‘sirida tug‘ilgan bu she‘rni Halima opaga o‘qib berganimda farishtadek gulgun chehrasi yorishgani



hech qachon ko‘z oldimdan ketmaydi. Ustoz xonadonidagi go‘zal davralarning birida yonida o‘tirgan taniqli jurnalist Dilbar Mahmudovaga qarab: “Dilbar opa, kelingizlar, shu qizaloqni qo‘shaylig‘a karvonimizga”, deya lutf qilgani faqat menga emas, balki bugun o‘zbek she‘riyatida o‘z ovozi, qalami bo‘lgan shoira opasigillariga ham berilgan beminat mehr edi. Qalding‘ochlarim she‘r o‘qisin deb shoira qizlarni birin-ketin davraga chorlab she‘r o‘qitardi. Ustozning xonadonida go‘zal va

gazetalarda chop etilganda, kitoblarim chiqqanda qo‘ng‘iroq qilib, samimiy tabriklar, otashin tilaklar bildirar edi. Bundan juda to‘lqinlab, boshim osmonga yetardi. Tez-tez diydorlashib tursak-da, telefon orqali suhbatimizdan keyin umidimning bog‘lari qayta gullab ketardi. Otashin yurakdan chaqin kabi chaqnaq tug‘ilgan, guldurakdek sado beradigan she‘rlarining oshig‘i edim. Ba‘zan she‘rlarini o‘ziga ham o‘qib berardim. Chunki o‘sha she‘rning sehirga, kayfiyatiga tushib qolardim.

Bir kun qo‘ng‘iroq qilsam, ustoz davolanayotganini aytib qoldi. Darrov Nazira As-Salomga bog‘landim. Chunki ikkalamiz shu kuni shoiraning uyiga borishni rejalashtirib turgandik. Nazira opa bilan shifoxonaga yo‘l oldik. Ustoz suhbatimiz orasida “Hali birgalashib bir joylarda o‘tiramiz, ko‘ngilni yayatib bir gaplashamiz, eng shirin suhbatlarimiz oldinda, qizaloqlar”, deb bizni vigor bilan kuzatdi. Betobligini umuman sezdimadi. Olanam o‘tganidan keyin birga tushgan suratlarimizga boqib, she‘rlarini qayta-qayta o‘qib, sog‘inchimni bosaman.

“Ovozining bir sifati tug‘yondir”

Halima opaga mehrini O‘zbekiston xalq shoiri Oydin Hojiyeva ham o‘ziga xos tarzda “Bag‘ishlov” she‘rida izhor qilgan. Afsuski, bu she‘rni opaning o‘zi o‘qimagan. Bu she‘rni takror-takror o‘qir ekanman, shoiraning izlarida haqiqatan “Erk gullari qulf urayotgani”ga, “Iymonida erk-shonlar hamon uyg‘oq” ekaniga ishonch hosil qilaman. Momalarimizdan meros chanqovuz nolasi kabi ko‘ksimda simillagan bu satrlar betinim urayotgan yuragimga taskin beradi, faxrga to‘ldiradi.

*Qaldirg‘ochlar in quradi bo‘ziningda,
Sho‘x ohular yuguradi bo‘zinda,
Erk gullari qulf uradi izingda,
Hayratdanmi qorilgandir zuvolang!
Ovozining bir sifati tug‘yondir,
Bir nisbati armon, o‘tli isyondir,
Biri chashma, biri telba bo‘rondir,
Qudratdanmi qorilgandir zuvolang!
Sukutingda uxlab yotar vulqonlar,
Iymoninda uyg‘oq yotar erk-shonlar,
Kamoningda o‘q bo‘ladi so‘z-donlar,
Jur‘atdanmi asli sening zuvolang!*

Ne baxtki Oydin opa ham zuvalasi hayratdan qorilgan Turon onalari timsoli bo‘lgan Halima opaning so‘z-donlari —



Bugun Guliston shahrida ochilgan Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi qanchadan qancha ijodkor yoshlarni bag‘riga olgan. Ularni oliy toifali ustozlar tarbiyalamoqda, o‘qitmoqda. Yoshlar ustoz she‘rlarini yodlab, ijodini o‘rganmoqda.

Kelajakda bu maktablarda Halima opaning xalqimiz dunyoqarashi yuksalishida katta xizmat qilgan, ulug‘ orzularga yo‘l ochib beruvchi, oliy maqsadlarimizga eltadigan oltin ko‘prik bo‘lguvchi buyuk she‘riyati, ma‘naviy merosi yanada ko‘proq o‘rganiladi, tadqiq etiladi.

“Uning yuragi mudom haq va haqiqat bilan uyg‘unlikda urardi”

Halima Xudoyberdiyeva tavalludining 75 yilligi arafasida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan chop etishga tavsiya qilingan “Saylanma” she‘rlar to‘plamini tayyorladim. Adabiyotshunos olim, ustoz Qozoqboy Yo‘ldoshev kitobga so‘zboshi yozib berdi.

So‘zboshida mana bunday ta‘rif keltirilgan: “Halima Xudoyberdiyeva — o‘zbek she‘riyatiga qasrig‘ali tuyg‘ular, ruhiy po‘rtanalarining betakror tasvirini olib kirgan shoir. U bitganlarida hamisha chin ko‘ngil holatlarini tasvirlagan esa-da, hech qachon faqat o‘z ko‘ngli bilan andamon bo‘lib qolgan emas. Chunki uning yuragi mudom Haq va haqiqat bilan uyg‘unlikda urardi. Shoiraning she‘rlari silliq va bir tekis emas. Zero, muvozanatdan chiqqan bezovta yurakning mahsuli bo‘lmish bitiklarga sillikliq begona bo‘lishi tabiiy. Po‘rtanalari yirik tuyg‘ular o‘zining tabiatiga yarasha ifoda tarzini taqozo etadi. Halimaxonim ko‘p asrlik tajribaga ega o‘zbek she‘riyatidan ana shu qirador sezimlarni boricha tasvirlay olishi bilan o‘z o‘rnini topdi”.

Olimimiz aytgani kabi shoiraning “qirador sezimlari boricha” “Eldoshlarim ichra yurib, Qayg‘ularim quyuqlashdi”, deya yana xalqiga, eldoshlari taqdiriga kuyinaveradi. Uning yuragidan tug‘ilgan bunday quyma va nuqra satrlar millatining, ona vatanning qon tomlarida toshib oqayotgan imyon daryosi tubidagi marvaridlardek qalb ko‘zlarimizni qamashtiradi, nigohlarimizni o‘tkirlashtiradi. Shoira bu dunyodan bedil, nafsiga qul, o‘ziga bino qo‘yib, o‘zgalar dardini eshitmaydigan, beparvoyo betayin o‘tayotganlarga qarata tinimsiz qalam charxlagan qalбини ayamaydi. Olovlar, tumanlar ichiga o‘zini urayotganlarning oydinlikka intilmog‘ini istaydi:

*Ongi zanglab, ongi qurib,
Jaholatga yovuq yurib,
Bir ko‘ylak deb gul kelinchak
O‘zin yoqar... o‘lim yongay!
Ey ahli yurt!
Tinglang, yetsa!
Bu yonishlar davom etsa
Bir kun ulkan yong‘in sodir,
Oh, qo‘raqman, elim yongay!
Hech na yonmas bu olamda...
Yonsa dog‘li dilim yongay.*

Bunday oromsizlikning avji Halima opaning yuragida to bu foniy dunyoni tark etmagunicha ham pasaymadi. Badiiyati yuksaklarga parvoz qilishdan to‘xtamadi.

“Har elga bir bayroq kerak hilpiragan, Qo‘llar kerak, ko‘tarmoqqa, chidasalar”, “Qancha qonib bo‘lsa — Vatan uchun to‘k, Qancha shonib bo‘lsa — Vatanni ko‘tar”, “Erk qushlari to‘kkan qonlar, Bekor ketmas, bilaman”, “Yashashga arziqli dunyo asli bu, Egrining egmini sidirib yetchsang”, “Begim Sizni tabiat raso qilib yaragan, Kimlamidir o‘ychanu, Sizni kulib yaratgan”, “Moziy-ku Vatanga yuzlab shon berdi, Bormi bu kunlarga shon beradigan?”, “Bayroq tutqichiga bir oyat yozdim, Ko‘targuvchi qo‘lga himoyat yozdim”, “Men birgina so‘z o‘stirdim, Mangu ko‘z yummay, Turkiy elni balolardan qo‘rib chiqar So‘z”, “Onasiz ham, bolasiz ham yashash mumkin-u, Ozodliksiz yashash mumkin emas hech qachon”, “Bolangizga bola qilib — Ozodlikni berib keting” degan satrlari hayotning kurash maydonida yangragan nog‘ora bongi kabi kitoblarning, dostonlarining, turkiy qavmni asraguvchi tumor ekanimizni eslatib turuvchi baxshiyonalarning har sahifasidan gurillab chiqib kelaveradi.

Yerim, Senga faqat hur nafas urgay, Sinmas ustunlarni yashirgan qa‘ring. Har birida shahid qonlar gupurgay, Maydoga tushganda tik bolalarinig.

Ulug‘ kun kelmoqda, toleing kulgan, Elim, tanbur, rubob, bor sozingni chal. Faqat shu kunlar deb yo‘lda yigilgan Go‘rdagilarni-da qutlaylik avval.

Bugun yellar kuychi Turonzaminda...